


МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ФАКУЛЬТЕТ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ
ОТДЕЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

"СОГЛАСОВАНО"

Декан факультета спортивная
деятельность и педагогика
А.Ш.Иноятов

«01» ~~02~~ 2024-г.



"УТВЕРЖДАЮ"

Проректор по учебной работе
Р.Г. Жумаев

«02» ~~02~~ 2024-г.



Итоговый государственный аттестационного Экзамена
по специальности для выпускников
511800- направления дошкольного образования

по дисциплинам

- 2.04. Дошкольная педагогика
- 2.05. Теория и технология развития речи детей
- 2.07. Теории и технологии обучения формирований математических представлений
- 2.08. Теории и технологии обучения изобразительному искусству

БУХАРА-2024

YDA dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

2024-yil 01 02 dagi 16-sonli bayonnoma.

Tuzuvchilar:

f.f.f., dots. N.N.Hamroyeva
dots. M.M. Nigmatova
f.f.f.d., dots. Sh.Sh.Nizomova

Taqrizchilar:

p.f.d.(DSc), prof. A.R. Hamroyev
p.f.n., dots. G.A. Komilova

Muqaddima

I. Umumiy qoidalar

II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi ko'rinishdagi bir yoki bir necha attestatsiya sinovlaridan iborat:

ayrim fan bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovi;

ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Ayrim fan bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning muvofiq davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi ayrim fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha davlat ta'lim standartida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasiga albatta bitiruv malakaviy ishning (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi kiritiladi. Ayrim yo'nalishlar uchun bu tartibga istisno kiritish faqat Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan hal etiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda o'tkaziladi.

9. Tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan, turdosh yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yetakchi professor-o'qituvchilarini jalb etgan holda, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishini (magistrlik dissertatsiyasini) baholash tartiblari ishlab chiqiladi va tayanch oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda tegishli oliy ta'lim muassasalariga belgilangan tartibda yetkaziladi.

III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida ishlayotgan olimlar, ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Oliy ta'lim muassasasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan ayrim fanlar bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovlari, ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

15. Yakuniy attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassisliklari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi Davlat test markazi vakillari ishtirokida o'tkaziladi.

IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida seminar-kengash o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan oldin oy ilgari talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar dasturlar bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlariga va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasiga tegishli ta'lim dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlar dissertatsiyasi) himoyasi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiy lashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan attestatsiya sinovlarining barcha turlaridan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq daraja va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom beriladi.

22. O'quv dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 ball dan kam bo'lmagan), shuningdek yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining har biri bo'yicha kamida 86 ball o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavrlar bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) o'tolmagan talaba uch yil ichida yakuniy davlat attestatsiyasiga (o'tolmagan attestatsiya sinovlarining har bir turi bo'yicha bir marta) qaytadan kiritiladi.

Muddatli harbiy xizmatda bo'lish va 3 yoshga to'lmagan bola parvarishi bo'yicha ta'vil ko'rsatilgan 3 yillik muddatga kirmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan ikkinchi marta ham o'ta olmagan talabalar masalasi ularning arizasiga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli kursga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

25. Ayrim fan (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi qoniqsiz ko'rsatkich (55 ball dan kam) talabani boshqa fanlar (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha attestatsiya sinovlaridan o'tish huquqidan mahrum etmaydi.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

31. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining hisoboti yakuniy attestatsiya sinovlari tugaganidan so'ng bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan tegishli vazirlik, idoralarga taqdim etiladi.

V. YAKUNIY QOIDALAR

32. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 23-son, 267-moddalari; 2015-y., 44-son, 571-moddalari.

"Maktabgacha pedagogika" fanidan Davlat attestatsiya sinovi uchun Dastur

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan jamiyatning negizi, uning tarkibiy qismlari, qonunlar va kategoriyalar, jarayonlar mohiyati, tizimlar kabi masalalarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan bir qatorda

mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini, Davlat ta'lim standartlari va kerakli me'yoriy hujjatlarni puxta egallashga yordam beradi. "Maktabgacha pedagogika" fanining o'rmi juda kattadir. Maktabgacha pedagogika fani bo'lajak tarbiyachilarni amaliy faoliyatga tayyorlash bilan birga ularda yuksak kasbiy faoliyat malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan asosiy umumkasbiy fan bo'lganligi sababli Respublikadagi MTTlarga yuksak salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni yetkazib beradi.

O'quv fanining maqsad va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirish. Shuningdek, u maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talabari, tamoyillari, mazmuni va tarbiyachining shakllantirishni pedagogik asoslarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabari nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- maktabgacha pedagogika fani, uning asosiy tushunchalari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lish**;
- maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari, qonunlari, tushunchalari va xususiyatlarini **bilish va ulardan foydalana olish**;
- talaba maktabgacha pedagogika fani muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

Bakalavr:

- maktabgacha ta'limning tarixi;
- maktabgacha pedagogikaning rivojlanish bosqichlari;
- davlatga qarashli va qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalari;
- maktabgacha ta'limning ta'lim tizimida tutilgan o'rmi;
- maktabgacha ta'lim bo'yicha kasbiy faoliyatining umumiy tamoyillari;
- maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanish konsepsiyasi;
- maktabgacha pedagogikaning rivojlanish tamoyillari
- bolalarni oilaga, maktabgacha ta'lim muassasalariga va ijtimoiy jamiyatga moslashtirish:
- bolaning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari;
- bolaning shaxsiy pedagogik-psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari;
- intellektual, aqliy rivojlanish ko'rsatkichlari;
- bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;
- bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi qo'yiladigan minimal talablar;
- oiladagi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi muhit;

bolaning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi **bilimga**:

- maktabgacha ta'limning asosiy tamoyillari;
- maktabgacha pedagogika fan sifatida;
- maktabgacha pedagogika ob'ekti, predmeti, funksiyalari;
- maktabgacha pedagogikaga qo'yiladigan asosiy talablar;
- maktabgacha pedagogikaning mazmuni, ilmiy-tadqiqot metodlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning falsafiy asoslari;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirish maqsadiga pedagogikaning asosiy funksiyasi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya berish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni nuqni o'stirish va o'zga tilga o'rgatish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy, iqtisodiy va estetik tarbiyalash;
- maktabgacha ta'limning uzviyligi va uzluksizligi;
- bola maktabgacha tarbiyaning - ob'ekti, rivojlanish va tarbiya - sub'ekti;
- bola va sotsium;
- maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, oila va mahalla tarbiya jarayonini tashkil etish shart-sharoitlarini
- bolani maktab ta'limiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar;
- bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab va oilaning hamkorligi;
- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga moslashtirish metod, vosita va usullarni **ko'nikma**;
- maktabgacha pedagogikaning nazariy va amaliy bilimlarini egallash;
- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni va texnologiyalarini egallash;
- zamonaviy va chet el maktabgacha ta'lim tizimi haqida bilimga ega bo'lish;
- maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida va ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy va chet el maktabgacha ta'lim tizimidan foydalana olish
- maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin va o'yinchoqlar orqali rivojlantiruvchi muhit yaratish;
- bolani intellektual zukko bo'lishini ta'minlash;
- bolani aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishga yo'naltirish;
- maktabgacha yoshdagi bola maktab ta'limiga tayyorlash;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining bola xavfsizligini ta'minlashdagi majburiyatlari;
- bolani maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirish;
- bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligini aniqlash va tahlil qilish usullari;
- bolani maktabga tayyorlash metodi va usullari;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolani maktabga tayyorligini aniqlash **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

Asosiy nazariy qism

- 1. Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari.**
O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.
Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
- 2. Murabbiylik va tarbiyachilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni**
Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo'yilgan talab va vazifalari.
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.
- 3. Tarbiya yaxlit pedagogik jarayon sifatida**
Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayon.
Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondoshuvlar va ularning o'ziga xosliklari.
- 4. Maktabgacha ta'lim muassasasi xujjatlari.**
Yillik, oylik istiqbol rejalalar.
Mudira, uslubchi, tarbiyachi va pedagogic jamoa yuritadigan hujjatlar
- 5. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari.**
Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shartlari.
- 6. MTM da yosh guruhlari**
Iлк yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
O'rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari
- 7. Tarbiya turlari**
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi, Aqliy tarbiya, Sensor tarbiya, Axloqiy tarbiya, Mehnat tarbiyasi. Estetik tarbiya., Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya.
- 8. Bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni.**
Oilada aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiya berish mazmuni;ota-onaning bola shaxsini tarbiyalashdagi o'rni;oilada ta'lim-tarbiya berish an'analari.
- 9. Maktabga tayyor bolalarga qo'yiladigan davlat talablari.Bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligi.**
Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish; bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi qo'yiladigan minimal

talablar;bolaning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari;bolaning shaxsiy pedagogik-psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari; intellektual, aqliy rivojlanish ko'rsatkichlari;bolaning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi;bolani maktab ta'limiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar;

10. Tarbiya va o'qitish jarayonlarining birligi va o'zaro aloqasini amalga oshirish va tarbiya vositasida bolalarni rivojlantirish.

Tarbiyaning jilimoiy hodisa va pedagogik jarayon sifatida shaxs kamolotiga tasiri.

Ta'lim va tarbiya birligi, ularning uzluksizligi

11. Maktabgacha pedagogika tarixi.

Tarbiyalash jarayonining vujudga kelishi, maktabgacha pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. maktabgacha pedagogikaning yurtimizda rivojlanishi

12. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi

Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi

tashkil etishning zamonaviy usullari, uslublari, mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari

13. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish tamoyillari va rahbarlik usullari

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish, Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarish, Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining o'ziga xosliklari

14. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

15. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila, maktab va MTM hamkorligi, bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

16. Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligini aniqlash va taxli qilish usullari.

Bolani maktab ta'limiga tayyorligini turli pedagogic va psixologik usullar, metodlar orqali aniqlash

17. Oilada bolani maktabga tayyorlash metodi.

Bolani oilada sog'lomlashtirish, oilada bolalarning insoniylik tuygularini tarbiyalash, oilada bolani maktabga tayyorlash metodi va usullari.

18. Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari va Maktabga tayyor bolalarga qo'yiladigan davlat talablari ga muvofiq bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini tashxislash

19. O'yinning bolalar faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi.

O'yin- bola faoliyatining asosiy turi sifatida o'rganish, o'yin turlari ularning bOola ta'lim-tarbiyasidagi roli

20. Maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasida olib boriladigan ishlarining mazmun va mohiyati.

Maktabgacha tarbiya muassasalarining oila bilan ishlash shart-sharoitlari. Oila bilan ishlashda yakka va jamoatchilik bilan ishlash. Ota-onalar yig'ilishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. Ota-onalar bilan ishlashni rejalashtirish va hisobga olish.

"Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari" fanidan Davlat attestatsiya sinovi uchun Dastur

O'quv fanining dolzarbligini va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan jamiyatning negizi, uning tarkibiy qismlari, qonunlar va kategoriyalar, jarayonlar mohiyati, tizimlar kabi masalalarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Ilk Qadam» tayanch dasturini, Davlat ta'lim standartlarini va kerakli me'yoriy hujjatlarni puxta egallashga yordam beradi. Har bir inson rivojlanishida, boshqa kishilar bilan mulqot qila olishida nutq asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'z fikrini ta'sirchan etkazishda tushunarli, mantiqiy, aniq, ravon nutqqa ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash kabi masalalar dolzarb bo'lib kelmogda. Ushbu kursni o'rganish jarayonida talabalar bolalarda nutqni rivojlantirish uslubiyatining nazariy asoslarini, bolalarni ona tilga o'rgatishning psixolingvistik, lingvovodaktik asoslarini o'zlashtiradilar.

O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, o'z fikrini ta'sirchan yetkazish, tushunarli, mantiqiy, aniq, ravon nutqqa ega bo'lishi, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va ish samaradorligi, boshqa kishilar bilan mulqot qila olishga o'rganish masalalari haqida talabalarga har tomonlama bilimlar berish.

Fanning asosiy vazifalari - Talabalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirishning nazariy va amaliy bilimlarini egallash bolalarning nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti

ishining mazmuni va metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirish. Mashg'ulotlarni rejalashtirish, mashg'ulot ishlanmalarini tuzish va tahlil qilish, metodik usullari va ta'limni o'yinlar tanlash, ular bilan ishlash mazmuni va metodlarini o'rganish. Talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki nutqni o'stirish va rivojlantirish ishiga tayyorlashdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalar nazariy bilim, ko'nikma va malakalar hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

-nutq o'stirish va o'ziga tilga o'rganish metodikasi fani, uning asosiy tushunchalari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lish*;

-maktabgacha yoshdagi bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini *bilish va ulardan foydalana olish*;

-talaba nutq o'stirish va o'ziga tilga o'rganish metodikasi fani muammolari bo'yicha echimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lish*.

1-Mavzu: Bolalarni nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari fanining ilmiy-nazariy asoslari.

Bolalarni nutqini o'stirish fanining maqsad va vazifalari. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy-shart-sharoitlari Sharq va g'arb mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari. "Ilk qadam" davlat dasturida nutq o'stirish mazmuni. Bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlari.

2-Mavzu: Maktabgacha kichik, o'rta va katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodlari va vositalari.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari, Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari, Maktabgacha o'rta guruh yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari, Maktabgacha o'rta guruh yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan mulqot. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi markazlarda ishlash usullari.

3-Mavzu: Ravon nutqni rivojlantirish.

Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ravon nutqqa o'rganish.

4-mavzu: Bolalarning iftimony va shaxs sifatida shakllanishida dialogik va monologik nutqning ahamiyati.

Dialogik va monologik nutqni shakllantirish usullari. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga doir markazlarda ishlash yo'llari.

5-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishini olib borishning nazariy asoslari.

Lug'at ishining vazifalari va mazmuni. Lug'at ishining asosiy usullari. Lug'atni boyitish va faollashtirish. Bolalar lug'atiga yangi so'zlarni kiritish. Bolalar lug'atni boyitishda ta'limiy o'yinlarni tanlash, o'tkazish va taqtil qilish.

6-mavzu: Bolalar lug'atni boyitishda ta'limiy o'yinlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati. Lug'atni boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari, ko'rgazma materiallar bilan o'yinadigan ta'limiy o'yinlar, ularning mazmuni. Bolalar lug'atni boyitishda ta'limiy o'yinlarni tanlash o'tkazish va taqtil qilish.

7-mavzu: Tovushlarning to'rt talaffuzi yuldasidan olib boriladigan ishlar mazmuni

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning mazmuni va mohiyati. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. Talaffuzga o'rgatishning asosiy bosqichlari. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish asosiy vazifalari. Tovush bosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning ahamiyati.

8-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish metodikasi.

Nutqning grammatik qurilishni shakllantirish metodikasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish usullari va yo'llari.

9-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqliy tarbiya berish texnologiyalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqliy tarbiya berish vazifalari. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli.

10-Mavzu: Subbat turlari va uning mazmuni.

Subbat turlari. Subbat tarkibi. Subbatga tarbiyachining tayyorlanishi va o'tkazishi. Subbatda asosiy o'rgatish usullari orqali savollar berish. Suratlar orkali subbatlar o'tkazish usullari.

11-Mavzu: Hikoya qilib berish turlari va metodlari.

